

OLIV TA'LIM TIZIMIDA NODAVLAT TA'LIM MUASSALARINING ROLI VA AHAMIYATI

Iskandarov Abdurasul Mirjalil o'g'li.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Moliya" kafedrası dotsenti.

Sadatov Og'abek

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Moliya" kafedrası magistri.

Annotatsiya. Hozirda yangidan-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Shu nuqtai nazardan xususiy oliy ta'lim muassasalaridagi moliyaviy holat tahlil qilingan va ta'lim muassasalarining daromadlari manbalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asoslab keltirilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim muassasalari, davlat-xususiy sherikchiligi, nodavlat ta'lim tashkilotlari, kontrakt, daromadlar, xarajatlar, respublika byudjeti, smeta, shtat birliklari, daromad bazalari, soliqlar, moliyaviy tahlil.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF NON-STATE EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Iskandarov Abdurasul Mirjalil ugli

Associate Professor of the Department of "Finance"

Karshi Engineering-economics Institute

Sadatov Ogabek

Master of the Department of "Finance"

Karshi Engineering-economics Institute

Abstract. Currently, new higher education institutions, branches of leading universities in the world are being established. In this context, the financial situation in private higher education institutions is analyzed and scientific proposals and practical recommendations on ways to ensure the stability of sources of income of educational institutions are substantiated.

Keywords: educational institutions, public-private partnership, non-state educational organizations, contract, income, expenses, republican budget, estimate, staff units, income bases, taxes, financial analysis.

Respublikamizda yaqin yillardan buyon ta'lim tizimiga, xususan oliy ta'lim tizimiga juda keng imkoniyatlar berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar tayrlash muqsadida oliygohlar soni 127 taga etkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochildi. Shuningdek, keyingi 5 yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiyqamrov 28 foizga etdi, deganidir. Vaholangki, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Davlat grantlari 21 dan 47 mingtaga ko'paytirilgani, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga oily o'quv yurtlariga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani yoshlarimiz kelajagini ta'minlashga qaratilgan amaliy e'tiborimiz namunasidir"¹ deb ta'kidlashlari, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini yangi bosqichga olib chiqishga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda davlatimizda islohotlar faqat iqtisodiyot sohasida emas, boshqa sohalarda ham olib borilmoqda, bu - avvalo, institutsional islohotlar bo'lib, ular eski markazlashtirilgan iqtisodiy tizimni yangi, erkin boshqaruv tizimiga o'tkazishni, uni rag'batlantiruvchi, hayotiy faoliyatga aylantirishni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazarda ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim asoslari, jumladan, quyidagilar bo'ldi:

- Respublikaning demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida barqaror ilgarilashi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi/<https://president.uz/uz/lists/view/4463>

- mamlakat iqtisodiyotida radikal o'zgarishlar amalga oshirilishi, respublika xo'jaligining xom ashyo ustun yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarishga izchil transformatsiyasini, mamlakat eksport salohiyati kengaytirilishi;

- davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaatlari va ta'lim ustivorligini qaror toptirish;

O'zbekiston Respublikasi boshqa mamlakatlarga qiyosan olganda inson taraqqiyoti ko'rsatkichlari borasida ham farqlanib turadi. Basharti, YAMMning taxminan 10%ga yaqini, davlat budjetining esa 35% atrofidagi mablag'lari ta'lim tizimiga yo'naltirilgan. Ammo ta'limga sarf-harajatlar o'sishi nafaqat budjetdan moliyaviy mablag'larni ko'paytirish, qolaversa shakllanish mexanizmi yetarlicha tadqiq etilmagan budjetdan tashqari yangi manbalar bilan ham ta'minlandi. Ilgari moliyaviy ta'minlash mexanizmi ta'lim muassasalari ehtiyojlariga mablag'lar ajratish qat'iy reglamentlangan tartibiga asoslangan edi. Hozir esa oliy o'quv yurtlariga moliyaviy-xo'jalik mustaqilligini berishni nazarda tutuvchi moliyaviy ta'minlash aralash modeli borgan sayin keng tarqalmoqda. Moliyaviy mablag' bilan ta'minlash hozirgi tizimi ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini inobatga olgan holda tashkil etilgan. Ana shunday sharoitda uzoq muddatli xarakterdagi prognozlash baholashni o'z ichiga oluvchi ta'lim xizmatlari ijtimoiy marketingi alohida o'rin tutadi. Personallashtirilgan moliyaviy ta'minlash, ya'ni ta'lim xizmatlari iste'molchisining bevosita mablag' bilan ta'minlashi hamda korxonalar va aholi tomonidan yondosh moliyaviy ta'minlash alohida o'rin egallaydi. Moliya mablag' bilan ta'minlash yangicha tartibi amaliyoti tahlil etish va umumlashtirishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tuzilmasi va bandlik tuzilmasining demografik vaziyat bilan o'zaro bog'liqligi ustida izlanish bormoqda, bu narsa esa milliy ta'lim modelini shakllantirishda ancha muhimdir. O'tish davridagi oliy ta'lim tizimini isloh qilish tajribasini kompleks tadqiq etish-barqaror iqtisodiy yuksalishga erishishga bog'liq. Bularning barchasi davlat oliy ta'lim davlat siyosati zamonaviy konseptual yondoshuvning yangi shakllari va

uslublarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolar dolzarbligini oshiradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani singari ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlardan ko'zda tutilayotgan eng oliy maqsad mamlakatimizni rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishida munosib hissa qo'shadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik"² deb alohida to'xtalib o'tdilar. Bu kabi mulohazalar ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tiborning va bu sohada bajarilayotgan ishlarning samaradorligidan dalolat bermodqa deyish mumkin.

Xulosa va takliflar. Respublikada Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bosh ustivor yo'nalishi-ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etishga va ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir o'tkazishga qodir shaxsni shakllantirishdir.

Mehnat sohasiga qadam qo'yayotgan kishilar kasb-hunar egallash va ish topish imkoniyatlariga ega bo'lishi uchun o'rta maxsus ta'lim muasasasalari rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli O'zbekistonning raqobatbardoshligini ta'minlash zaminidir. Ta'lim jarayoni maqsadlari, mundarijasi, hajmiy va davriy tuzilmasini belgilovchi davlat ta'lim standartlarini uning muhim unsuridir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining spetsifik xususiyati uning inson butun umri davomida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilganligidir.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020-yil.

Ta'lim islohotlari mantig'i O'zbekiston iqtisodiyotining barcha bo'g'inlarini isloh qilish, ularning vorsiyligi, izchilligi, tizimga solinganligi va hokazolar mantig'iga to'la mos keladi.

Adabiyotlar

1. Инновационный менеджмент: Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития: Учеб.пособие/Под ред. В.М. Аньшина, А.А. Дагаева. – 3-е изд. М.: Дело, 2007. – 584 с.
2. Патрик Э., Яшин В. Инновационная деятельность в Германии. // Проблемы теории и практики управления. 2009. - №1. – С.62-70
3. Патрик Э., Яшин В. Технопарки как инструмент поддержки инновационной деятельности. // Проблемы теории и практики управления. 2009. - №3. – С. 59-64
4. Самылина Е. Правовое регулирование инновационной деятельности в Российской Федерации. <http://www.advocacy.ru/pur/innovacii.pdf>
5. Сеньюк Н.Ю. Инновационно-инвестиционное сотрудничество России и Китая в эпоху глобализации: стратегические предпосылки, возможности и механизмы. <http://www.mirec.ru>
6. Хаунина Е.А. Создание и функционирование фондов целевого капитала (эндаумент-фондов) в сфере культуры в Российской Федерации. – ВТЭ. - №2. – 2018. – С. 101-112.